

**Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi**

**Namangan davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada istiqlol davrida keng yoyilib xalqni ma'rifiy yuksaltirishni maqsad qilgan jadidchilik harakatining ayrim namoyondalari faoliyati yoritib berilgan. Qolaversa, ushbu harakatning jamiyatni ijtimoiy-ma'rifiy yuksaltirishga qo'shgan ulkan hissasi ham tahlil qilingan.*

**Kalit so'z va iboralar:** tarix, jadidchilik, maorif, Behbudiy, Cho'lpon, Ibrat, istiqlol, ziyorolar.

**Абстрактный.** В данной статье освещена деятельность некоторых проявлений движения джадидизма, получившего широкое распространение в период независимости и направленного на улучшение образования народа. Кроме того, был проанализирован и большой вклад этого движения в социальное и образовательное оздоровление общества.

**Ключевые слова и фразы:** история, модернизм, образование, Бехбууди, Чолпан, Ибрат, независимость, интеллектуалы.

**Abstract.** In this article, the activities of some manifestations of the Jadidism movement, which spread widely during the period of independence and aimed at improving the education of the people, are highlighted. In addition, the great contribution of this movement to the social and educational improvement of the society was also analyzed.

**Key words and phrases:** history, modernism, education, Behbudi, Cholpan, Ibrat, independence, intellectuals.

Tarix kelajak va moziyni bog'lovchi, o'quvchiga uning har bir sahifasidan saboq beruvchi, mudhish xatolarni takrorlamaslikka o'rgatuvchi beminnat ustozdir. Shubhasiz, har bir muvaffaqiyat ortida ko'rinas, ammo mashaqqat bilan bosib o'tilgan qiyinchiliklar turadi. Shu kabi bugungi yorug' kunlarning ham, bugungi istiqbol va erkinlik onlarining ham sababchilari, fidokorlari bor. Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyorolar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Shular qatorida XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib

chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyat parvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish — siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Markaziy Osiyoda keng quloch yoygan o‘zbek jadidchilik harakati yangi tamaddunning milliy poydevorini yaratish uchun hayotning har bir jabhasida islohotchilik harakatini boshlab yubordi. Professor Temur Xo‘ja o‘g‘li jadidchilik harakati o‘zidan to‘qqiz ulug‘ g‘oyani meros qilib qoldirganini ta’kidlab o‘tgan. Ular orasida eng boshlang‘ichi va mas’uliyatlisi milliy o‘zlikni anglash g‘oyasidir. Millat o‘zining kimligini va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yaxshi bilmas ekan, o‘zligini namoyon etish yo‘lidagi har bir harakati samara bermasligi mumkin.

Jadid bobolarimiz bizga faqat g‘oyanigina meros qilib qoldirgani yo‘q, balki bu olamshumul g‘oyalarni amalga oshirish uchun harakat dasturini ham yaratib ketdilar. Bu dasturga muvofiq tarzda izchil kurash yo‘li sifatida islohotchilik takomilini yaratdilar. Islohotlarning yuzaga kelishi milliy zaminda an‘anaviy maktab va madrasa ta’limi, mumtoz adabiyot namunalarini jiddiy suratda qayta nazardan o‘tkazish jarayonida kechdi. Filologiya fanlari doktori Hamidulla Boltaboyev ta’kidlaganidek: “Jadid adiblari badiiy adabiyotda jahon andozalari darajasida qabul qilinadigan asarlar yozishga kirishdilar. Yangi adabiyot, bir tomonidan, mumtoz adabiy janr va obrazlar doirasida shakllangan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, davr voqealarini aks ettirgan o‘ziga xos oyna vazifasini bajardi”. Albatta, bu ishda Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is’hoqxon to‘ra Ibrat kabi ziyoli shaxslar katta rol o‘ynashdi.

Maorif sohasida, ayniqsa, Turkiston jadidchilik harakatining bonysi deya ta’riflangan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U ham jadidchilik harakatining tamal toshi bo‘lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoysi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Mahmudxo‘ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma’rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari garmog‘ini kengaytirish, ular uchun o‘quv dastur va darsliklar yaratish, o‘quvchilarni o‘quv qurollari bilan ta’minalash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan mutazam shug‘ullandi. Ketma-ket uning “Risolayi asbobi

savod”, “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy”, “Kitobatul at-fol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom” kabi kitoblari paydo bo‘ldi. <sup>1</sup>Bu darslik va qo‘llanmalar savod yoshidagi bolalarning o‘qishini osonlashtirish, ularni zamon bilan hamnafas holda tarbiyalash, islomiy-milliy qadriyatlarni o‘quvchi ongiga to‘g‘ri singdirish maqsadida ishlangan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktublari”) dir. Kitobda bolalarni turli mazmundagi maktublari va yozma ishlari jamlangan. Darslik muqaddimasida Turkistonning usuli qadim maktablarida bolalarni yozma savodxonligini oshirish darajasi nihoyatda pastligi, muallimlar ko‘p hollarda saboqni og‘zaki yodlatish bilan cheklanishlarini ta’kidlab, xalq orasida insho qobiliyatini o‘stirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu darslik, birinchidan, yoshlarni turli davlat idoralarida o;zbek tilida ish yuritishga o‘rgatish vazifasini o‘z oldiga qo‘yan bo‘lsa, ikkinchidan, muallimlarning e’tiborini o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishdek nihoyatda muhim masalaga qaratadi: “ shogirdlar ibtidoiy maktabg‘a kirib, qalam yurgizgonidan so;ng har nav maktub ta’lim olmoq ila batadrij usuli tahrir va kitobati zamoniya va mahalliya ham adabiyoti milliya tahsilina boshlab, borabora tahsillarini oxirig‘acha mahorat hosil etadurlar. Biz ham shul qoidag‘a binoan majmuuning kitobat va insho unvoninda avlodni vatan uchun rasmiy va xususiy hamda Turkistonning shar’iy va milliy mahkamalarina ma’mul barcha vasoyiq hujjatu biljumla muslimon valasno‘yi upraviteli huzurinda bo‘laturgon doznaniya, protokol, qabohatnomha va rasmiy har nav maktublarni muhtaviy bir necha juzdan murakkab bir asar nashr etmoq amalinda eduk. Shu maqsadg‘a ushbu “Kitabot ulatfol”ni nashr ila shuru’ etdim. Muallim afandilar maktab bolalarig‘a mundagi maktublardan ozoz bo‘lib, har kalima va jumla ma’nosini bildurub, sabog‘ va ta’lim bermoqlari va imtihon olmoqlari marju’dur”. <sup>2</sup> Hozirgi kunda ham yosh kadrlarning savodxonlik darajasi og‘riqli muammolarimizdan biri, ming afsuski. Deylik oliy ta’limni tamomlagan oliy ma’lumotli mutaxassis ishga kirmoqchi bo‘lsa, undan oddiygina ariza yozish talab qilinadi, ammo yozilgan hujjatga qarasangiz, bir necha jumlada ko‘plab uslubiy, ishoraviy, punktuatsion xatolarni topish mumkin. Bu kamchiliklarimizga sabab qilib bugungi qabul imtixonlarining test sinovi shakliga o‘tkazilganligi bilan birga o‘rta maxsus maktablarda boshlang‘ich sinfdan boshlab yozma savodxonlikka kam e’tibor berilayotganini ham ko‘rsatish mumkin. Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. aytganlaridek: “Bilimni yozuv bilan mustahkamlanadi”. Shunday ekan jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lish uchun insonlarga fikrni yozma bayon qilish

<sup>1</sup> Mahmudxo‘ja Behbudi. Tanlangan asarlar. 2 jildli / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi S.Ahmedov. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

<sup>2</sup> Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiylari va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999.

qobiliyati suv va havodek zarurdir. Mutafakkir bobomiz Behbudiy jamiyatdagi bu qusurni o'sha zamondayoq anglab, uni bartaraf etish uchun bor kuch-g'ayratini baxshida etdi. Shu sababdan, bu risolalar nafaqat maktabdagilar uchun, balki katta yoshdagi savodsiz kishilar uchun ham ajoyib qo'llanma bo'di. Boshqacha qilib aytganda, Behbudiy asarlari o'sha davrdagi savodsizlikni tugatish, xalqni ilm-m'a rifat ziyosi bilan isitish uchun bamisli ma'naviyat quyoshi bo'ldi.

Behbudiyning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u ta'lim, jurnalistika, siyosat, ijtimoiy masalalar sohalarida samarali ish olib borgani bilan ham Turkiston jadidlari orasida ajralib turadi, Va, bu qirralarini tadqiq etilsa, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining yetakchisi ekabnligi ko'zga tashlanadi. O'zlikni anglash va jahonga chiqish til siyo sati bilan bog'liq ekanini chuqur tushungan jadidlar o'zbek tilini rivojlantirish, uning qonun-qoidalarini yaratish va o'zlashtirish, mahalliy shevalar asosida adabiy til me'yorlarini shakllantirish ishlariga berildilar. Tildan ilk saboq beradigan boshlang'ich darsliklar yaratish bilan birga, o'zbek tili qonuniyatlarining ishlanishiga alohida e'tibor qaratdilar Ularning o'z ona tilini mukammal bilish va g'ayri tillarni ham o'rganishga chorlovchi so'zlar xalq orasida tez tarqaldi. Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari uning 1915-yili yozgan "Til masalasi" nomli maqolasida aks etgan. Ushbu maqola ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismda Behbudi turkiy tilning shevalari xususida fikr yuritadi. Behbudi Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o'zini yetuk tilshunos sifatida namoyon qiladi. U turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjalar qay darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani va bu jarayon "barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqe' jug'rofiyasig'a qarab har nav" <sup>3</sup>ekanligini tadqiq etdi. Bu esa Behbudiyning shevashunoslik borasida ham chuqur bilimga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Umuman olib qaraganda, Behbudi har sohada ilg'or va har jabhada yalovbardorlikni o'z bo'yniga oldi. Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda, Mahmudxo'ja Behbudi Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Mahmudxo'ja Behbudi XX asr bo'sag'asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyondasi, yangi zamon o'zbek madabiyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiliginin boshlab bergen birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Behbudiyning "Turkiston idorasi", "Turkistonda mifik jarida", "Buxoroda usuli jadid", "Yoshlarga murojaat",

<sup>3</sup> Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. 2 jildli / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi S.Ahmedov. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

“Ehtiyoji millat”, “Ikki emas, to‘rt til kerak”, “Musulmonchilik libos va qiyofat tanlamaydi” kabi publisistik maqolalari milliy jurnalistika asoslarini tashkil etadi. Behbudiy faoliyati va uning ahamiyati haqida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomalarida: “2020 yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi”, - deb alohida to‘xtalib o‘tdi. Buyuk mutafakkir g‘oyalarini, amaliy ishlarini uning shogirdlari, jadidchilik harakatining yosh namoyondalari davom ettirishdi.

Shunday jonkuyar kishilardan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon edi. “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir”, deya ma’rifat maydoniga chiqqan Cho‘lponning ijodi va hayot yo‘li olmos kabi serqirradir. Adibning dunyoqarashi o‘zi o‘qigan gazeta-jurnallar, aniqrog‘i, jadidchilik g‘oyalari ta’sirida shakllandi: u o‘zini qurshab turgan ijtimoiy muhitni, o‘zi guvohi bo‘lib turgan voqeа-hodisalar mohiyatini jadidchilik ruhidan kelib chiqib tushunadi va baholaydi. Shu bois Cho‘lpon adabiyotdagi ilk qadamlaridanoq ijodiy kredosini aniq belgilab, butun kuch-g‘ayratini “millatni uyg‘otish” maqsadiga sarf etish, bu yo‘lda badiiy so‘zni vosita qilishga qaror bergan edi. Uning matbuotdagi ilk chiqishlari qatorida sanaluvchi “Adabiyot nadir?” va “Muhtaram yozg‘uchilarimizga” nomli mo‘jaz maqolalari shundan dalolat beradi.

“Adabiyot nadir?” nomli maqolasida so‘z san’atining xossalardan so‘z ocharkan, Cho‘lpon adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, vazifalariga diqqat qiladi va uqdiradiki: “Adabiyot yashasa, millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmag‘on va adiblar yetishtirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”. Cho‘lpon tushunchasidagi adabiyot millatni inqirozdan saqlashi, uning taraqqiysiga xizmat qilishi dar-kor. Muallif ommaning adabiyotga befarq, hatto o‘tmishda yaratilgan “ta’rxi umumiylarni o‘qub anglamoqdin” yiroq ekanligidan tashvish chekadi. Ovro‘po xalqlarining adabiyotga tamom o‘zgacha munosabati haqida havaslanib yozadi, ularning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot masalasida ilgarilab ketishi omillaridan birini shunda ko‘radi. Cho‘lpon havasli nigohini Ovro‘podan yurtiga o‘girsaki, bunda ulamo-yu eshonlar “to‘n kiymak”, avom “choyxonalarga chiqub choy ichmak”, ziyolilar esa “Ovro‘pa kiyimliklari-yu qiymatlik papiro‘sler” dan zavq olishayotir. Cho‘lpon shu ma’naviy qashshoqlanish sabab “kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirg‘on istiqbolimizga umidsiz qaraymiz”, deb hisoblaydi. Maqolada adabiyotning “o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi” sifatida zarur ekani uqdiriladi, pirovardida, “Adabiyot o‘quyluk, adiblar yetishturay-

luk!” degan chaqiriq yangraydi. Cho‘lpon ayni paytda “agarda “bayoz” va bema’ni bir-ikkita kitobl ar bilan qolsak” inqirozga uchraymiz deya ogoh lantiradi ham. Ya’ni, u nazarda tutayotgan adabiyot – yangicha adabiyot, shu bois ham “adiblar yetishturayluk!” chaqirig‘iga alohida urg‘u beradi, adiblar yetishtirish zarurligini qayta-qayta takrorlaydi.

O‘zining otashnafas so‘zlari va xalq qalbidan chuqur o‘rin egallagan she’rlari bilan Cho‘lpon ijodiga mangulik haykalini qo‘ydi. Uning o‘zbek romanchiligi, nasri, jadidchiligi, umuman, o‘zbek adabiy muhitida tutgan o‘rni beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz: “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor, bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q” deya ta’kidlaganlarida hech ham adashmagan edilar.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida har bir ma’rifatparvar shaxsni nazorat ostida ushlab turish; masjid va madrasalarda, kitob bozorlarida xorijiy gazeta va jurnallar bor-yo‘qligini tekshirish; kishilar ongini rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan jadid ro‘znomalarini qattiq ta’qib etish; mahalliy ziyolilarni bir-biriga qarama-qarshi kuchga aylantirish, ya’ni ulamolarni jadidlarga, jadidlarni esa ulamolarga qarshi qo‘yish kundan kunga avj ola boshladi. Ammo shunday qaltis vaziyatga qaramay, o‘z erkini tikib bo‘lsa ham ma’rifatparvarlik g‘oyasi yo‘lida jon fido qilgan insonlar yetarlichadir. Ularning yagona quroli – ilm, ma’naviyat, johiliyatdan xalos bo‘lish. Is’hoqxon to‘ra Ibrat ma’rifatparvar ziyolilar qatori xalq ongini shakllantirish, yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish, mamlakatni obod va farovon ko‘rish, maorif, ta’lim-tarbiyani tubdan isloh qilish yo‘lida xizmat qildi.

Ilmiy izlanishlar natijasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Turkistondagi birinchi jadid maktabi Is’hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat tomonidan 1886-yilda ochilgan deb, e’tirof etiladi.<sup>4</sup> Is’hoqxon to‘ra Ibratning bu jadid maktabi mahalliy millat bolalari uchun ochilgan rustuzem maktablari ta’sirida tashkil qilingan emas. Bu maktab to‘g‘risidagi ma’lumotlar Ibratning “Qalam” she’rida keltirilgan. O‘qitish tizimini zamonga moslashtirish Is’hoqxon to‘ra Ibrat singari fidoyi pedagoglarning maqsadi edi. Bu haqda U.Dolimov: “Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan, savodga o‘rgatishda ancha yengillik vujudga keltiruvchi tovush (savtiya) usulini tatbiq etdi va “usuli savtiyai tadrijiya”ni “usuli qadimiya” tarafdorlaridan himoya qildi”<sup>5</sup>, – deya ta’kidlagan. Usuli savtiya – tovush metodi, tovushlarning grafik belgilari, ya’ni harflar yordamida savodga o‘rgatish

<sup>4</sup> Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.11; Воҳидова К. Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тар. фан. номз. ... дисс. –Т., 2002. – Б.29.

<sup>5</sup> Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.47.

bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘qitish usuli. U.Dolimov bu metod haqida shunday ma’lumot beradi: “Bu o‘qitish usuli dastlab hanafiya mazhabining asoschisi, fiqh olimi Imom A’zam Abu Hanifa tomonidan VIII asrda ishlab chiqilgan. Ushbu metodni birinchi bor XVI asrda polyak pedagogi Valentin Ekalzamen Yevropa maktablari uchun ishlab chiqdi, ammo katolik mutaassiblari uni qo‘llashga imkon bermadi. XVI asrdan boshlab usuli savtiya metodi o‘qitish tizimidan chiqarib tashlangan, faqat quruq yodlashga asoslangan usuli hijo asosiy o‘qitish metodi sifatida qolgan edi. Ikki asr o‘tgach, shveytsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalotssi tovush metodini amaliyotga tatbiq etdi” . Novator pedagog sifatida Ibrat tatbiq etgan bu usul bir necha yillar mobaynida samarali o‘qitish tizimini tashkil etish uchun dasturilamal bo‘lib keldi. Bugungi kun bilan taqqoslasak, O‘zbekiston ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, G‘arb tajribasini Sharq qadriyatlariga moslab o‘zlashtirish, bolalarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri yodlash emas, aksincha, nazariyaning tub mohiyatini o‘zlashtirishga qaratilgan maqsadli ta’lim tizimi allaqachonlar jadid bobolarimiz tomonidan boshlab berilgan edi.

Ibrat tilshunos olim sifatida “Lug‘ati sitta al -sina” hamda “Jome’ul-xutut”asarlarini yaratdi. <sup>6</sup>Qariyb o‘n yil davom etgan G‘arb hamda Sharq mamlakatlariga sayohat ,jumladan, Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Parij, Hindiston, Bombey, Kalkutta, Xitoy va Qashqar kabi shaharlar hayoti, madaniyati, ma’naviyati bilan tanishish uning til o‘rganishga bo‘lgan munosabatini mustahkamladi, yangi kuch-g‘ayrat va e’tiqod bilan ma’rifatparvarlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. “Sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida bir lison safar ahlina yuz oltun barobarinda ishладики, biza mushohida bo‘lub, bu lisonlar tahsiliga ko‘sish edub va ham dahr ahlina bir nishon qoldurmak fikri-la necha muddati madid va ahdi baid (uzoq vaqt ichida) bu kitob tadvinina justijo‘ edub, bo‘yla bir kitob suratinda xalqqa namunador etdim va ham olti lisondan murakkab o‘ldug‘i uchun “Lug‘ati sitta alsina” tasmiya edub, ikki jild (qism) ila tartib etdum”. <sup>7</sup>Sayohat davomida to‘plagan katta materiallari asosida arba’i lison – arabcha, forscha, hindcha, turkcha, o‘zbekcha, ruscha tillarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asarini yaratdi. XIX asr oxirlariga kelib, rus tilini o‘rganishga qiziquvchilar sezilarli darajada ortib borsa-da, ular uchun darslik va qo‘llanmalar yo‘q darajada edi. Bu haqda “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida Toshkent kitob do‘koni xo‘jayinlaridan biri quyidagilarni ma’lum qiladi: “Shu kunlarda shaharliklar o‘rtasida rus tiliga qiziquvchilar soni ortib bormoqda.

<sup>6</sup> Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари: Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Ташкент, 2008 йил, 34-бет.

<sup>7</sup> Исҳоқхон Ибрат. Лугати сittа алсина. – Тошкент: Ильин типографияси, 1901. – Б. 3

Toshkent kitob do‘koni xo‘jayinlaridan biri “sartlar tinchlik bermayapti, ruscha o‘rganish uchun sart tilida yozilgan biror darslik bormi?” – deb so‘rab kelishaverib jonga tegdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yerli o‘troq aholining til o‘rganishga qobiliyati kuchli”. <sup>8</sup>53 bet 2 qismdan tashkil topgan Ibratning lug‘atshunoslikka oid asari esa yerli aholi uchun til o‘rganishda ayni muaddao bo‘ldi. Ibrat so‘z ma’nolarini ommaga tushunarli bo‘lishini nazarda tutgan holda so‘zlarning adabiy varianti bilan bir qatorda dialektal variantlarini ham keltiradi. Lug‘at bu jihatni bilan dialektal lug‘at belgilarini ham o‘zida mujassam etgan. Ko‘rinadiki, Ibrat bobomiz nafaqat tilshunos olim sifatida, balki jonkuyar muallim, xalqini ma’rifatga yetaklovchi ziyoli sarbon sifatida ham jiddu jahd bilan mehnat qilgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilg‘or fikrli, har bir madaniy yangilikni o‘z xalqiga in’om etishga qodir, mamlakat taraqqiyoti uchun bor kuch-g‘ayratini ayamaydigan fidoyi inson edi. Undagi bor ilm, madaniyat va shijoat zamondoshlaridan bir qadam ilgari yurishiga sabab bo‘lgan. Diniy va dunyoviy ilmni chuqur egallagan olim har qanday og‘ir sharoitda ham o‘zining insonparvarlik xislatini yo‘qotmadi. Bu esa uning ko‘p yil qozilik faoliyatini davom ettirib, xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishiga imkon berdi. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ham qozilik sudi saqlanib qoldi. Ushbu jarayonga manbalarda: “Bu bilan mustamlakachilar o‘zlarini yerli xalqqa nisbatan odil, ularning “pushti panohi” qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar”, <sup>9</sup> – deya munosabat bildiriladi. Sud ishlari shariat qoidalari asosida olib borilsa-da, ammo davlat ahamiyatiga molik ishlarni qozilik sudida ko‘rish man etilgan edi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat 20 yilga yaqin qozilik lavozimida ishlagan bo‘lsa-da, xalq manfaatini ko‘zlab ish olib bordi. Boshqa qozilardan farqli o‘laroq xalqni talash, poraxo‘rlik va o‘z mansabini suiiste’mol qilish yo‘lidan bormadi. Chor Rossiyasi davrida “eng insofsiz kishilar qozilik lavozimlarida o‘lturadi” kabi kinoyali iboralarni Ibrat faoliyatidan batamom uzoqda edi. Bu haqda shogirdlaridan biri mulla Iskandar domla Abduvahob o‘g‘li shunday hikoya qiladi: “Is’hoqxon to‘ra eng odil, eng faqirparvar qozi edi. U boyni ham, kambag‘alni ham bir xilda tinglar va hukm chiqarar edi. Men o‘n yil to‘ramning xizmatida bo‘lib, biror marta pora olganini, boylarga yon bosganini bilmayman, aksincha, kambag‘al, beva-bechoralarning mushkulini yengillashtirishga harakat qilardi. U faqat xalq manfaati uchungina qozilik mansabida ishlagan. Uning uyida, qozixonasida rus huquqshunosligiga oid kitoblar ham bo‘lib, ruscha sud qonun-qoidalalaridan xabardor edi”. Shuni ta’kidlash kerakki, jadid namoyondalarining har bir harakati, egallagan mansabidan foydalanish madaniyati, axloqi, odamiylik tuyg‘usi bugungi kun uchun,

<sup>8</sup> Туркестанские ведомости, 1900, № .98

<sup>9</sup> Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.171

bugungi vaziyat va insonlar uchun tom ma'noda ibratdir. Ya'nik, rivojlanishning porloq osmonida qora bulutdek suzib yurgan korrupsiya deb atalmish taraqqiyot kushandasidan ham xuddi bobolarimiz kabi adolat bilan hukm chiqarish, har ishda vijdoniylikni oliy me'zon deb bilish orqali qutulishimiz mumkin. Bu borada Is'hoqxon to'ra Ibrat bobomiz namuna va yo'lboshchidir.

Milliy mustaqillikning ashaddiy yovi bo'lgan sovet mafkurasi jadidchilikni ildizi bilan qo'porib tashlashga bir necha bor urindi. 1918, 1929 va 1937 – 1938-yillar davomida bir necha qirg'inlar uyushtirildi. Nihoyat, 30-yillarning oxiriga kelib, sovet hukumati o'z niyatini amalga oshirib ulgurdi. Ilk bor istiqlol g'oyalarini kun tartibiga olib chiqqan, vatanini ozod va obod ko'rishni istagan jadidchilikning qariyb 150 yillik tarixini mustaqil O'zbekistonning yangi tarixida mufassal aks ettirish Istiqlol mafkurasi talablariga mos keladi. Yangi Uchinchi Renessansning milliy, ma'naviy va ilmiy poydevorini yaratishda jadid tamadduni asos vazifasini o'taydi.

Hozirgi davrda Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat, Ibrat kabi jadidlarning millat kelajagi, mamlakat taraqqiyoti va, eng muhimi, uning mustaqilligi, erki uchun qilgan mehnat va xizmatlarini aholining keng qatlami, xususan, navqiron yosh avlodga boricha yetkazib berish yangidan kun tartibiga chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori va Avloniy istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan "fidokorligi", shu bilan bir qatorda, ularning "milliy ta'lim va tarbiya tizimini" yaratishdagi "hissasi" uchun "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixon tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi". Jadidchilik harakati doirasida ko'tarilgan masalalar umummiliy, keng qamrovli, hayotiy, juda zarur va olamshumul edi. Jadidchilik harakatida qatnashgan arboblar, adabiy shaxsiyatlar, muallimlar, ziylilar ning son-sanog'i ko'p. Ularning faoliyati o'z davrida qaysidir darajada muhokama qilindi va bu jarayon hali shu kunga dovur davom etib keladi. Biroq jadidchilik harakati tarixi, namoyandalari faoliyati va merosi xususidagi bugungi qarashlar tugal emas, bu tarixiy hodisa hozirga qadar

istiqlol, Vatan va millat manfaati nuqtai nazaridan real ilmiy-nazariy bahosini olganicha yo‘q. Biz yoshlarning oldimizda turgan eng katta maqsadlardan biri ham jaded bobolarimiz hayotini chuqr o‘rganish, ularning ezgu g‘oyalarini davom ettirib Vatanimiz O‘zbekistonning istiqbolli kelajagi yo‘lida ularga izdosh bo‘lishimiz darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. — B. 128.
- 2.Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. — Toshkent: Ma’naviyat, 2006. — B. 184.
3. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. — Toshkent: Akademiya, 1999.
- 4.Boltaboyev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Фитратнинг ilmiy merosi: fil.fan.dok... diss. — Toshkent, 1996. — B. 30.
- 5.Nazarova Sh. XX asr boshlari... — Toshkent, 2023. — B. 34.
- 6.G‘afurov I. Mangu latofat. — Toshkent: Sharq NMAK, 2008. — B. 12.
- 7.Po‘latjon Domla Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiyl. 3-jild. — Toshkent: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririyl nashriyot bo‘limi, 1999. — B. 582.
- 8.Abdulla Avloniy. Gapurmanglar. Sabzazor. Birinchi tab' (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). — Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. // Sadoyi Turkiston. 1914. №11
- 9.Sayyid Ahmad Vasliy. Tashakkur. Sabzazor. Birinchi tab' (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). — Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. — B. 3.
- 10.Sidqiy. Qanday ahvoldabiz. Sabzazor. 1914. — B. 14.
- 11.Ahqariy. Yangi g‘ozetamizga xitob. Sabzazor. — Samarqand, 1914. — B. 13.
12. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2 jildli / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi S.Ahmedov. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
- 13.Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 1-jild. — Toshkent: Ma’naviyat, 1998. — B. 50.

- 14.Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.11; Воҳидова К. 15.Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тар. фан. номз. ... дисс. –Т., 2002. – Б.29.
- 16.Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.47.
- 17.Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишининг илмий-назарий ҳамда амалий асослари: Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2008 йил, 34-бет.
18. Khasanova, F. (2023). History of The Formation of Baihua. Spast Abstracts, 2(02).
19. Karimov, A., & Khasanova, F. The Impact of Ancient Chinese on Baihua Language.